



**Referendum nima
va nima uchun kerak?**

2-betda o'qing ↘



**Odamlar aldashdan voz
kechmadi, siz ishonishdan
voz keching!**

5-betda o'qing ↘

INSON va qonun

www.adolatmarkazi.uz [telegram.me/hudud24official/](https://t.me/hudud24official/) facebook.com/hudud24official/

2023-YIL
4-APREL
SESHANBA

№ 13 (1373)

www.hudud24.uz

@adolat_nashrlari



"ADOLAT"

**"ADOLAT" milliy
huquqiy axborot
markazi nashrlariga
obuna bo'ling!**



"Adolat
nashrlari"
telegram
kanalida
kuzating!



9-APREL – Sohibqiron AMIR TEMUR tavallud topgan kun



Ishbilarmon mardlik va shijoat sohibi,
azmi qat'iy, tadbirkor va hushyor bir kishi
ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilar-
dan yaxshidir.

Garchi ishning qanday yakunlanishi
taqdir pardasi ortida yashirin bo'lsa ham,
aqli raso va hushyor kishilardan kengash-u
tadbir istab, fikrlarini bilmoq lozimdir...

Men o'z saltanatimni dini islom, to'ra va tuzuk asosi-
da mustahkamladim. Saltanatni boshqarishda uchragan
har qanday voqea va ishni tuzuk asosida bajardim.

Har bir shaharda masjidlar, madrasalar, xonaqohlar
qurishni, musofir yo'lovchilar uchun yo'l ustiga rabot-
lar bino qilishni, daryolar ustiga ko'priklar qurishni
buyurdim.

Zolimdan mazlumning haqqini oldim.
Zolim yetkazgan moddiy va jismoniy zararlarni
isbotlaganimdan keyin, uni shariatga muvofiq
odamlar o'rtasida muhokama qildim va bir
gunohkorning o'rniga boshqasiga jabr-zulm
yetkazmadim.

Yaxshilarga — yaxshilik qildim,
yomonlarni esa o'z yomonliklariga
topshirdim. Kim menga do'stlik qilgan
bo'lsa, do'stligi qadrini unutmadim va
unga muruvvat, ehson, izzatu ikrom
ko'rsatdim.

Kengash ikki turli bo'lur: biri — til uchida
aytilgani, ikkinchisi — yurakdan chiqqani.
Til uchida aytilganini shunchaki eshitardim.
Yurakdan aytilgan maslahatni esa qalbim qu-
log'iga quyardim va dilimga joylardim.

Sarmoyasi qo'lidan ketib
qolgan savdogarga o'z sar-
moyasini qaytadan tiklab oli-
shi uchun xazinadan yetarli
mikdorda oltin berilsin.
Dehqonlar va raiyatdan
qaysi birining dehqonchilik
qilishga qurbi yetmay qolgan
bo'lsa, unga ekin-tikin uchun
zarur urug' va asbob tayyor-
lab berilsin. Agar fuqarodan
birining uy-imorati buzilib,
tuzatishga qurbi yetmasa,
kerakli uskunalarini yetkazib
berib, unga yordam berilsin.

"Temur tuzuklari" dan

2 JARAYON



Referendum (lot. referendum – bildirilishi kerak bo'lgan, xabar berilishi, ma'lum qilinishi zarur bo'lgan narsa) – umumxalq ovoz berish yo'li bilan qonunlar qabul qilish va davlat ahamiyatiga molik eng muhim masalalarni hal qilish shakli.



REFERENDUM NIMA va nima uchun kerak?

XABARINGIZ bor, shu yilning 30-aprel kuni O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga referendum bo'lib o'tadi.



Referendum bevosita demokratiyaning muhim vositasi hamdir. Uning saylovlardan asosiy farqi shundaki, referendum o'tkazilayotganda biron-bir lavozimga nomzod yoki nomzodlar ro'yxati uchun ovoz berilmaydi. Balki, fuqarolar unda

muayyan masala – O'zbekiston Respublikasi qonunlarini va boshqa qarorlarini qabul qilish maqsadlarida jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari yuzasidan ovoz beradi.

Mamlakatimizda referendumni tashkil etish va o'tkazish tartibi "O'zbekiston Respublikasining referendumi to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solinadi.

KIMLAR ISHTIROK ETADI?

Referendum o'tkaziladigan kunga qadar yoki referendum kunida o'n sakkiz yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasining har bir fuqarosi referendumda ishtirok etish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida istiqomat qilayotgan yoki turgan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi referendumda ishtirok etishga to'la haqlidir.

Referendum fuqarolarning o'z xohish-irodasini umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri bildirishi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining referendumda ishtirok etishi ixtiyoriy va erkindir.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etganligi uchun sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish tarzidagi jazoni ijlro etish muassasalarida saqlanayotgan shaxslar referendumda ishtirok etish huquqiga ega emas.

OVOZ BERISH BYULLETENI QANDAY BO'LADI?

Referendumda ovoz berish byulletenida referendumga qo'yilayotgan masalalarning matni aniq aks ettiriladi. Ya'ni, bu yilgi referendumda "Siz "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonunini qabul qilasizmi?" degan masala qo'yiladi. Ovoz berish byulletenida uni to'ldirish tartibi to'g'risida tushuntirish bo'ladi.

Referendum saylov uchastkalarida 2023-yil 30-aprel yakshanba kuni soat 8.00 dan 20.00 gacha o'tkaziladi. Ovoz berish vaqti va joyi to'g'risida uchastka komissiyasi referendum o'tkaziladigan kunga kamida o'n kun qolganda fuqarolarni xabardor qiladi.

Ayrim fuqarolar sog'lig'ining holatiga yoki boshqa sabablarga ko'ra ovoz berish binosiga kela olmagan taqdirda, ularning iltimosiga ko'ra referendum o'tkazuvchi uchastka komissiyasi ovoz berishni ana shu fuqaro turgan joy bo'yicha, ko'chma ovoz berish qutilaridan foydalanib tashkil etadi.


Referendum kuni o'z yashash joyida bo'lish imkoniyatiga ega bo'lmagan ovoz beruvchi muddatidan oldin ovoz berish huquqiga ega. Muddatidan oldin ovoz berish referendumga o'n kun qolganida boshlanadi va referendumga uch kun qolganida tugallanadi.

Agar ovoz berishda ishtirok etgan fuqarolarning yarmidan ko'prog'i yoqlab ovoz bergan bo'lsa, qaror referendumda qabul qilingan deb topiladi.

Nasiba QUTLIMURATOVA,
Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi Qoraqalpog'iston Respublikasi filiali bosh inspektori



BUGUN mamlakatimizda keng muhokamalar markazida yangi tahrirdagi Konstitutsiya turibdi. Chunki konstitutsiya har bir davlatning asosiy qonuni, fuqarolarning barcha huquq va erkinliklari, burchlari aks etgan, ertangi kunga ishonchini oshiradigan hujjatdir.



YANGI KONSTITUTSIYA

*yangi imkoniyatlar
demak*

Binobarin, har bir fuqaro konstitutsiyaviy islohotlardan, xususan, unga kiritilayotgan o'zgartish va qo'shimchalardan, yangiliklardan boxabar bo'lishi lozim.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda so'nggi yillarda inson qadrini ulug'lashga qaratilgan keng ko'lamlı islohotlar, yangi qoidalar va tartib-taomillar yanada mustahkamlab qo'yilmoqda. Qolaversa, kundalik hayotimizdagi ko'pgina muammoli masalalar ham o'z yechimini topmoqda. Jumladan, 42-moddada "Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi", deya belgilanmoqda. O'z hayotimda shu boradagi muammoga duch kelganim bois mazkur modda e'tiborimni tortdi. Ya'ni uylanganimdan so'ng turmush o'rtog'imga sohasidan kelib chiqib ish topmoqchi bo'ldim. Bir muddat o'zi ishlab turgan joyda muayyan shartnoma asosida ishladi. Lekin doimiy shtatga o'tkazish bilan bog'liq muammolar paydo bo'lib, shtat asosida ishlashi ortga surilaverdi. Orada farzandli bo'ldik. Homiladorlik ta'tili olishga ham ehtiyoj bo'lmadi. Chunki ish beruvchilar "qizlarni doimiy shtatga ishga ololmaymiz" deb muayyan shartnomani o'zgartirishmadi. Bu muammo ko'pchilikning boshidan o'tgan. Ayollarning tug'ish ta'tili bilan bog'liq vaziyati tufayli ko'pchilik tashkilotlar xotin-qizlarni ishga olishni istashmaydi yoki buni paysalga solishadi. Yuqoridagi qoidaning konstitutsiyaga kiritilishi nur ustiga a'lo nur bo'layotir.

Hayotimizda uchrab turadigan yana bir muammo iste'mol xarajatlari, pensiyalar, nafaqalar va boshqa turdagi ijtimoiy yordamning miqdori orasidagi tafovutlar masalasi edi. Ayni muammo yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 46-moddasida "Qonunda belgilangan

pensiyalar, nafaqalar va boshqa turdagi ijtimoiy yordamning miqdori rasman belgilangan eng kam iste'mol xarajatlardan oz bo'lishi mumkin emas", deya aks ettirilmoqda. Bu esa ayniqsa, kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan va yolg'iz keksalarning moddiy qiyinchiliklari va yetishmovchiliklarining oldini olish, ularning kundalik turmushida yengillik berish bilan ahamiyatga molik. Ma'lumki, eng kam iste'mol xarajati deganda, insonning asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun bir oy davomida zarur bo'ladigan tovar va xizmatlarni sotib olishga yetadigan mablag' miqdori tushuniladi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada esa har qanday ijtimoiy yordamning miqdori eng kam iste'mol xarajatlardan oz bo'lishi mumkin emasligi mustahkamlab qo'yilmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 47-moddasida "Hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emas. Uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning qiymati hamda u ko'rgan zararlarning o'rnı qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda qoplanishi ta'minlanadi", deb qayd etilmoqda. Ayniqsa, "snos" muammosidan jabr chekkan fuqarolarga bu modda juda qadrlidir.

Yangi tahrirda ijobiy o'zgarishlar, fuqarolar hayotiga yengilliklar kiritadigan moddalar ko'pligi kishida farovon hayotga, inson qadru qimmatı to'kis ta'minlanadigan adolatli jamiyatga umid uyg'otadi. Uni hayotimizning asosiy mazmuniga aylantira olsakki, na o'zimiz orzu qilgan farovon hayotga erishamiz.

Xurshid SEROBOV,
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti ilmiy xodimi

TOSHKENT



O'rganish jarayonida aniqlanishicha, Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi Mirzo Ulug'bek tuman bo'limi tomonidan chiqarilgan 2020-yil 16-noyabrda 1912-sonli qarorning mehnat stajini hisoblamaslikka oid qismini haqiqiy emas, deb topish maqsadida R. Mamadaliyevning manfaatida tuman adliya bo'limi tomonidan Toshkent tumanlararo ma'muriy sudiga kiritilgan da'vo arizasi sudning 2023-yil 15-martdagi hal qiluv qarori bilan qanoatlantirildi.

Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi Mirzo Ulug'bek tuman bo'limi zimmasiga R. Mamadaliyevning 1988-yil 15-oktabrdan 1991-yil 5-fevralgacha "Radost" korporativida, 1991-yil 5-fevraldan 1995-yil 10-avgustgacha "Ishchi" firmasida, 1995-yil 10-avgustdan 1998-yil 15-iyulgacha "ChP Mamadaliyev"da, 2001-yil 17-iyuldan 2003-yil 11-sentabrgacha "Zul'-ART" xususiy firmasida ishlagan davrlarini umumiy mehnat stajini hisoblashda inobatga olish majburiyati yuklatildi.

Shokir YUSUPOV,

Mirzo Ulug'bek tuman adliya bo'limi boshlig'i

SAMARQAND

SAMARQAND viloyat adliya boshqarmasiga kelib tushgan murojaatlardan biri mulkdorning asossiz ravishda mulkidan mahrum bo'lib qolayotgani bilan bog'liq. Hokimlik garchi qo'yilgan ayblovlarni rad etgan bo'lsa-da, sudda adolat qaror topdi.

MULKDOR MULKIDAN
MAHRUM BO'LGAN

Aniqlanishicha, Samarqand shahrida yashovchi fuqaro A.A.ga 2004-yildagi oldi-sotdi shartnomasiga asosan tegishli bo'lgan Samarqand shahar, sobiq Temiryo'l tumani, Rudakiy ko'chasida joylashgan 299.2 kv.m bo'lgan "Savdo va maishiy xizmat ko'rsatish kompleksi" Samarqand shahar hokimining 2018-yil 11-dekabrda qarori bilan "Agro plus" MChJga berib yuborilgan. Ammo yer maydoni uchun kompensatsiya to'lab berilmagan. Buzilgan huquqlarini tiklash uchun fuqaro yillar davomida sarson bo'lgan.

O'rganish jarayonida ma'lum bo'lishicha, A. Ahmedov 2004-yil 17-martdagi 95-sonli oldi-sotdi shartnomasiga asosan, Samarqand shahar, sobiq Temiryo'l tumani, Rudakiy ko'chasi 86-uy manzilida joylashgan "Savdo va maishiy xizmat ko'rsatish kompleksi"da veterinariya klinikasini tashkil etib, ma'lum muddat faoliyat ko'rsatgan. Ammo 2012-yilning oxirida sog'lig'i yomonlashgani sababli Rossiya Federatsiyasiga ketgan va 2015-yilda qaytgan. Lekin uning ko'chmas mulki hokimlik tomonidan 2014-yilda buzib yuborilgan. Shuningdek, Samarqand shahar hokimining 2018-yil 11-dekabrda qarori bilan 100 kv.m qismi "Agro plus" MChJga Samarqand shahridagi "Ali Qushchi" mahalla fuqarolar yig'ini binosini qurish uchun ajratilgan. Biroq, Samarqand shahar hokimligi tomonidan fuqaroga yetkazilgan zarar qoplab berilmagan.

Fuqaroning buzilgan huquqlarini tiklash maqsadida viloyat adliya boshqarmasi tomonidan fuqarolik ishlari bo'yicha Samarqand shahar sudiga da'vo arizasi kiritilib, qisman qanoatlantirildi. Ya'ni, sud javobgar hisobidan fuqaro foydasiga buzilgan savdo va maishiy xizmat ko'rsatish kompleksi, yerdan foydalanish huquqining bahosi hamda ekspertiza o'tkazish uchun to'langan to'lovlar uchun jami 891 million 525 ming 701 so'm miqdorida kompensatsiya undirish haqida qaror qabul qilindi.

Sindor USMONOV,
Samarqand viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi

QORAQALPOG'ISTON

USTAMASIZ QOLGAN
BOSH O'RMONCHI

FUQARO R. Dosmanov Amudaryo tuman adliya bo'limiga murojaat qilib, 2000-yildan buyon Qipchoq davlat o'rmon xo'jaligida bosh o'rmonchi lavozimida ishlab kelayotganini, unga ko'p yillik mehnati uchun ustama puli to'lanmayotganini bayon qilib, o'z haqini undirib berishda amaliy yordam so'ragan.

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-iyulda qarori bilan tasdiqlangan "O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi va uning tizimiga kiruvchi tashkilotlar xodimlari mehnatiga haq to'lash va ularni moddiy rag'batlantirish tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan o'rmon xo'jaligi sohasi xodimlarining uzluksiz ish staji 20 yildan 25 yilgacha bo'lganda – tarif stavkasining 70 foizi miqdorida ustama to'lanishi ko'rsatilgan.

O'rganish davomida aniqlanishicha, Amudaryo tuman Qipchoq davlat o'rmon xo'jaligi tomonidan Nizom talablariga rioya qilinmagan. Xususan, fuqaroning ish staji 20 yildan ortiq bo'lsa-da, unga yuqorida belgilangan normaga asosan ko'p yillik xizmati uchun qo'shimcha ustama puli to'lanmagan.

Vaholanki, Mehnat kodeksining 154-moddasiga asosan ish beruvchi o'zining moliyaviy holatidan qat'i nazar, xodimga bajargan ishi uchun maoshni belgilangan mehnat haqi shartlariga muvofiq ushbu Kodeksning 161-moddasida ko'rsatilgan muddatlarda to'lashi shart.

Yuqoridagilarni inobatga olib, fuqaroga to'lanmasdan kelingan qo'shimcha ustama pulini to'lash bo'yicha fuqarolik ishlari bo'yicha Amudaryo tuman sudiga da'vo arizasi kiritildi.

Sud tomonidan davo ariza qanoatlantirilib, R. Dosmanovga ko'p yillik mehnat staji uchun 28 million 524 ming 943 so'm qo'shimcha to'lovni to'lash bo'yicha hal qiluv qarori chiqarildi.

Bahrom SOBIROV,
Amudaryo tuman adliya bo'limi yetakchi
maslahatchisi

QORAQALPOG'ISTON

TO'RTKO'L tuman adliya bo'limiga murojaat qilgan fuqaro S.Yu. Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi To'rtko'l tuman bo'limining 2023-yil 17-fevraldagi javob xati bilan bog'liq harakatlarini qonunga xilof deb topish va hisobga olinmagan ish stajini qo'shib, pensiyani qayta hisoblash masalasida amaliy yordam berishni so'ragan.

Fuqaroning ish staji
to'liq inobatga olinadigan
bo'ldi

Aniqlanishicha, Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi To'rtko'l tuman bo'limining 2023-yil 17-fevraldagi javob xatida fuqaroning taqdim qilgan hujjatlari asosida, umumiy mehnat staji 16 yil 22 kun hisobidan, pensiya jamg'armasi To'rtko'l tuman bo'limining pensiya tayinlash haqidagi 2016-yil 23-sentabrdagi qarori bilan 2016-yil 10-sentabrdan e'tiboran 163 ming 27 so'm 20 tiyin miqdorida yoshga doir pensiya tayinlangani ko'rsatilgan.

O'rganish jarayonida S.Yu.ning mehnat daftarchasida 1973-yildan 2004-yil 21-dekabrgacha shirkat xo'jaligida ishlaganligini tasdiqlovchi yozuvlar mavjud bo'lsa-da, pensiya tayinlashda 1981-yil 1-fevraldan 28-fevralgacha, 1-apreldan 30-aprelgacha, 1-oktabrdan 31-oktabrgacha, 1983-yil 1-yanvardan 31-yanvargacha, 1-avgustdan 31-avgustgacha, 1985-yil 1-oktabrdan 31-oktabrgacha, 1986-yil 1-yanvardan 31-dekabrgacha, 1987-yil 1-oktabrdan 31-oktabrgacha, 1992-yil 1-yanvardan 1994-yil 31-dekabrgacha va 1996-yil 1-yanvardan 2004-yil 21-dekabrgacha ishlagan davrlari komissiya tomonidan hisobga olinmaganligi ma'lum bo'ldi.

Vaholanki, Mehnat kodeksining 81-moddasi va "Fuqarolarning davlat pensiyasi ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 42-moddasiga binoan, mehnat daftarchasi ish stajini tasdiqlovchi asosiy hujjat bo'lib hisoblanadi. Keyingi islohotlarga ko'ra, 2005-yil 1-yanvardan avvalgi davrlar uchun ish staji shaxsning mehnat daftarchasidagi (elektron mehnat daftarchasidagi) mavjud yozuvlar asosida, tasdiqlovchi hujjatlar talab etilmasdan belgilanadi" deb ko'rsatilgan.

Shunga asosan, Nukus tumanlararo ma'muriy sudning hal qiluv qaroriga ko'ra fuqaroning pensiya jamg'armasi To'rtko'l tuman bo'limi tomonidan hisobga olinmagan davrlarini pensiyaga qo'shib, qayta hisoblanishi ta'minlandi.

Mansur NURADDINOV,
To'rtko'l tuman adliya bo'limi boshlig'i

4 "MADAD" JAVOB BERADI

**YETARLI
BO'LMASA HAM
PENSIYA
TAYINLANADIMI?**

– Onam pensiya yoshiga yetdi. Bir necha yil fermada sut sog'uvchi bo'lib ishlagan. Besh-olti yillik stajim bor, dedilar. Onamga ish staji yetarli bo'lmasa ham pensiya tayinlanadimi?



– O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonuni 7-moddasiga ko'ra, yoshga doir pensiya olish huquqiga:

- ✓ erkaklar – 60 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo'lgan taqdirda;
- ✓ ayollar – 55 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 20 yil bo'lgan taqdirda, ega bo'ladi.

Pensiya tayinlash uchun yetarli-cha ish stajiga ega bo'lmagan shaxslarga yoshga doir pensiyalar ushbu qonun 37-moddasi birinchi qismining "a", "b", "v" va "g" bandlarida nazarda tutilgan kamida 7 yil ish staji mavjud bo'lgan taqdirda, bor stajga mutanosib miqdorda tayinlanadi.

Mazkur qonunning 29-moddasida ish staji to'liq bo'lmagan chog'dagi pensiyani hisoblab chiqarish tartibi belgilangan bo'lib, unga ko'ra, ish staji to'liq bo'lmagan chog'dagi pensiyalar bor stajga mutanosib miqdorda tayinlanadi.

**Ish staji to'liq bo'lmagan chog'dagi pensiyalar:**

- ✓ yoshga doir pensiyalar uchun – yoshga doir eng kam pensiyaning 50 foizidan;
- ✓ I guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga nogironlik pensiyalari uchun – yoshga doir eng kam pensiyaning 100 foizidan;
- ✓ II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga nogironlik pensiyalari uchun – yoshga doir eng kam pensiyaning 75 foizidan kam bo'lmashligi lozim.



Savollarga "Madad" NNT Qiziltepa tuman huquqiy maslahat byurosi bosh mutaxassisi

Otabek ZOYIROV javob berdi

**O'ZINI O'ZI BAND
QILGAN SHAXSNING
ISHGA KIRISH TARTIBI
QANDAY?**

– MA'LUMOTIM o'rta maxsus. Mutaxassisligim bo'yicha ish topolmay. o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tdim. Yaqinda bir tashkilotdan o'zimga mos ish taklif qilishdi. Endi ishlamoqchiman. O'zini o'zi band qilgan shaxs birorta tashkilotga ishga kirishi mumkinmi?



– O'zini o'zi band qilgan shaxslar bemalol biror bir tashkilotga ishga kirib, mehnat shartnomasi tuzishlari mumkin. Lekin bu holatda ular o'zini o'zi band qilgan shaxs maqomini yo'qotadi (takstidan bundan mustasno).

"Aholi bandligi to'g'risida"gi qonunning 35-moddasi to'rtinchi qismiga ko'ra, o'zini o'zi band qilgan shaxslar sifatida ro'yxatga olingan shaxslar o'z faoliyatida yollanma xodimlar mehnatidan foydalanishga, shuningdek ish beruvchiga ega bo'lishga haqli emas. Ushbu talablarga rioya etilmagan taqdirda, o'zini o'zi band qilgan shaxslar o'zini o'zi band qilgan shaxslar maqomini yo'qotadi.

Bu borada faqat bir istisno mavjud. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-iyuldagi "Avtotransport vositalarini boshqarishda va yo'nalishsiz taksi faoliyatini amalga oshirishda qo'shimcha qulayliklar yaratish to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, boshqa sohalarida mehnat shartnomasiga asosan band bo'lgan shaxslar bir vaqtning o'zida yo'lovchilarni yengil avtotransport vositalarida tashish faoliyati bilan o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tgan holda mazkur faoliyat bilan shug'ullanishlari ham mumkin.

**SINGLIM XORIJDA
NIKOHDAN O'TSA
BO'LDIMMI?**

– Singlim xorijda o'qib, ishlayapti. Yaqinda xorijda ishlaydigan qarindoshimiz bilan unashtirildi. Oila qurishgach, o'sha yerda yashashmoqchi. Singlim xorijda nikohdan o'tsa bo'ladimi? Chet elda yashovchi O'zbekiston fuqarolariga nisbatan fuqarolik holatlari dalolatnomalari qanday tartibda qayd qilinadi?

– Vazirlar Mahkamasining 387-sonli qarori bilan tasdiqlangan Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalariga asosan O'zbekiston Respublikasining chet elda yashovchi fuqarolariga nisbatan tug'ilganlik, nikoh tuzish, nikohdan ajralish, o'lim holatlarini qayd etish O'zbekiston Respublikasining konsullik muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.

Fuqarolik holatlarini qayd etishda O'zbekiston Respublikasining konsullik muassasalari tomonidan konsullik yig'imi undiriladi.

**BIR VAQTDa IKKI
TURDAGI PENSIYA
OLISHIM MUMKINMI?**

– II guruh nogironiman. Yaqinda pensiy yoshiga yetdim. Bir vaqtda ikki turdagi pensiya olishim mumkinmi? Shu masalada huquqiy maslahat bersangiz?

– "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunning 4-moddasiga ko'ra, davlat pensiyalarining turli toifalarini olish huquqiga ega bo'lgan fuqarolarga ularning o'zlari tanlagan bitta pensiya tayinlanadi deb ko'rsatilgan.

Bu degani agar o'sha fuqaroning holati har ikkala pensiyani olishi uchun to'g'ri kelib qolsa, yuqoridagi asosga ko'ra u o'zining tanlovi bilan faqat bitta turdagi pensiyani olishi mumkin bo'ladi.

**BOQUVCHISINI
YO'QOTGAN AYOLGA
QANDAY IJTIMOY
YORDAM BERILADI?**

– Yaqin dugonamning umr yo'l-doshi avtohalokat sabab vafot etdi. Uch farzandli oila boquvchisini yo'qotdi. Unga davlat tomonidan ijtimoiy yordam ko'rsatilishi mumkinligini aytdim. "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlarga qanday yo'nalishlarda yordam ko'rsatiladi? Shu haqda ma'lumot bersangiz.

– Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-martdagi "Xotin-qizlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 145-sonli qaroriga muvofiq, "Ayollar daftari"ga 30 yoshdan oshgan quyidagi xotin-qizlar kiritiladi. Mazkur qaror bilan tasdiqlangan nizomga asosan, "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- ✓ ishsiz xotin-qizlar uchun – ularni ta'minlash;
- ✓ tadbirkorlik qilish istagida bo'lgan ehtiyojmand xotin-qizlar uchun – tadbirkorlikni yo'lga qo'yishga ko'maklashish;
- ✓ boquvchisi bo'lmagan ehtiyojmand xotin-qizlar uchun – bir martalik moddiy yordam berish, zarur hollarda ularning uy-joyini ta'mirlash;
- ✓ ijtimoiy yordamga muhtoj I va II guruh nogironligi bo'lgan, shuningdek, tezkor tibbiy muolajaga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlar uchun – tibbiy yordamlar ko'rsatish;
- ✓ uy-joyga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlar uchun – ijara kompensatsiyasini to'lash, ijtimoiy uy-larga joylashtirish, uy-joy bilan ta'minlash;
- ✓ qaramog'ida nogironligi bo'lgan farzandi mavjud ehtiyojmand xotin-qizlar uchun bir martalik moddiy yordam berish; zarur hollarda, sektor rahbari xulosasi asosida tomorqadan va dehqonchilikdan daromad manbai sifatida foydalanish uchun ko'maklashish.

HA, bugun "Odamlar aldashdan voz kechmadi, siz ishonishdan voz keching!" degan chaqiriqni o'qib, balkim biroz hushyor tortarmiz. Bu shunchaki undov emas! Bu aynan bugunning shiori. Bugun har sohada juda ilgarilab ketdik, texnika taraqqiyotida mislsiz o'zgarishlarga guvohmiz. Ayniqsa, axborot texnologiyalari yordamida ba'zi narsalarni "suv qilib ichib yubordik"...

Odamlar aldashdan voz kechmadi,

SIZ ISHONISHDAN VOZ KECHING!

Ana shu axborot asri-ning ba'zi bir "kasofati" vijdonimizni, insofimizni butunlay yutib yubordi, ayrimlarni nafsning quliga aylantirdi. Ba'zilar begonalar uyoqda tursin, hatto yaqinlarining ko'ziga ham xas tashlashdan tap tortmaydigan darajadagi "bilimdon ixtirochi"ga aylandi.

NORASIDANING UVOLI TUTSIN!

Og'ir dardga chalingan uch yoshli qizchasini Toshkentga – Respublika ixtisoslashtirilgan gematologiya va qon quyish ilmiy-amaliy tibbiyot markazida davolatilish uchun mablag'i yetmagan ota yaqinlari, qarindoshlari, mahalladoshlaridan yordam so'rab, telegram guruhlariga plastik kartasini tashlagan. Namangandagi mahallalardan birining telegram guruhiga tashlangan plastik kartaga yig'ilgan besh million so'm pul esa insofsiz o'g'ri-kazzobning "hunari" bilan bir soniyada o'marilgan. Oq qon kasaliga chalingan farzandining operatsiyasiga deb yig'ilgan puldan ayrilgan otaning ahvolini tasvirlash juda og'ir. Bunday firibgarlarni norasidaning uvoli tutsin, deyishdan boshqa choramiz yo'q!

Biz qanday va qachon bunday ochko'zga aylandik? Axir bir mayizni qirqqa bo'lib yegan, oxirgi bir burda nonini o'zi yemay o'zgalar bilan baham ko'rgan, boshiga og'ir ish tushganda oxirgi molini sotib muhtojo do'stning mushkulini oson qilishdan g'ururlangan qo'li ochiq, bag'ri keng, nazari to'q, tanti elning avlodi emas-midik?

Nahotki, o'z qavmimizni, o'z do'stimiz, o'z hamyurtimizni aldash boylik orttirishdan or qilmaydigan, boshiga kulfat tushgan birodarimizni tunaydigan darajadagi kazzobga aylandik. Plastik kartalarni onlayn "o'marish" kabi bu xiyonatlar real hayotdagi taraqqiyot emas, insoniyat tanazzuli ekanligini tan olishga majburiy.

TUZOQQA TUSHISHIMGA SAL QOLDI

Deyarli har kuni, har soniya aldov va yolg'onlarning, firibgarlarning qarmog'iga ilinayotgan zamondoshlarimiz, akamiz, ukamiz, do'stimiz, qo'shnimiz, hamkasbimizga duch kelayapmiz. Eng achinarlisi, bu tuzoqqa oq qorani taniydigan, shu firibgarlardan hushyor bo'lish haqida boshqalarni ogohlantirib yuradigan odamlar ham tushib qolayotgani. Kuni kecha messengerim orqali yaqin tanishimdan SMS xabar oldim. Uni darhol ochib qaradim va "Havas" supermarket Ramazon oyi munosabati bilan aksiya o'tkazayotgani va bu o'yinda ishtirok etib, katta pul yutug'i egasi bo'lishim mumkinligi haqida chorlovdan xabar topdim. Tabiiyki, shubhaga o'rin qoldirmay berilgan anketa savollariga javob berib, firibgarining yo'rig'iga yura boshladim, internetda joylangan o'yin ishtirokchisiga aylandim. Ikkinchi urinishda 3 million so'm yutuqqa ega bo'lganim to'g'risida tasdiqli xushxabar keldi. Quvonib ketdim. Endi o'yinni davom ettirishga ishtiyoqim yanada kuchaydi va qoidaga binoan o'sha smsni 20 ta tanishimga telegram orqali yuborishim so'raldi. Men buni ham ikkilanmasdan zudlik bilan bajardim. Shunda... telefonimda qandaydir texnik nosozlik ro'y berdi va men hushyor bo'ldim. Shundagina bu feyk xabarligi xayolimga keldi. Darhol "Havas" marketning internetdagi ma'lumotlari orqali ular bilan bog'lanib, bu aksiyaga aniqlik kiritmoqchi bo'ldik. "Havas"ning mas'ul xodimi "Bu xabar yolg'on xabar, unga ishonmanglar, biz hech qanday aksiya o'tkazayotganimiz yo'q" deganidan so'ng, tuzoqqa tushishimizga sal qolganidan voqif bo'ldik. Yutuqli pulni olaman deb halol pulimdan ayiradigan o'yinga vaqtida nuqta qo'ydim. Ammo firibgarlarning tuzog'iga tamoman tushishimga bir bahya qolganidan xijolat bo'ldim, aniqrog'i, uyaldim...



Ammo aldanib, ko'p pulidan ayrilganlar qancha. Mana ziyoli, ma'rifatli, oq-qorani taniydigan do'stlarimizdan biri "Mahalladan sizga 650 ming so'm bola puli ajratildi. Plastik kartangiz raqamini yuborsangiz, pulni o'tkazib beramiz", degan yolg'on xabarga ishonib plastik kartasi raqamini qanday yozib uzatganini bilmay qoldi va bu xabar firibgarlarning nayrangi ekanligini keyin angladi. Yaxshiyamki, kartasida pul yo'q ekan. Ammo kelgusida bu kartadan foydalanish xatarli ekanligi yana bir muammoni tug'dirishi tabiiy. Kartani bekor qilish, boshqa yangi karta ochish esa ortiqcha xarajat va vaqtni talab qilishi aniq.

Bola parvarishi bilan uyda o'tirgan yana bir ayol ham xuddi ana shunday sms xabarga ishonib plastik kartasining nomeri va amal qilish muddatigacha yozib yuborib, kartasidagi bor pulidan ayrilganidan keyin pushaymon qildi. Sodda zamondoshlarimiz "Tekin pishloq faqat qopqonda bo'ladi" degan maqolni unutmangiz kerak.

Odamlarimizning oq ko'ngilligidan, ishonuvchanligidan foydalangan firibgarlar esa o'tni qamchilayapti. Olg'irlikning yangi-yangi ko'rinishlarini kashf qilayapti. Maqolani yozish jarayonida yonimdagi hamkasbimga +74951083057 raqamdan kutilmagan qo'ng'iroq bo'ldi. Albatta, bu raqam boshqa davlatning raqami ekanligi va u mabodo shu qo'ng'iroqqa javob bergudek bo'lsa, uning telefoniga ulangan plastik kartalaridan pullar o'z-o'zidan yechib olinishi mumkinligini bilgani uchun bu qo'ng'iroqqa javob bermadi.

O'ZINGGA EHTIYOT BO'L...

"O'zingga ehtiyot bo'l, qo'shningni o'g'ri tutma!" deydi xalqimiz. Lekin ko'p hollarda bu haqda mutaxassislar fuqarolarni qancha ogohlantirmasin, baribir, odamlarda pul haqidagi bu SMS xabarlarga qiziqish juda kuchliligi qolmoqda.

Bugungi kunimizga kelib, bank plastik kartalaridan foydalanish xavfsiz va texnik jihatdan mukammal jarayonga aylanib bormoqda. Lekin firibgarlar ham bo'sh kelishmayapti.

Firibgarlar qanday usullardan foydalanishlari va ularning tuzog'iga tushmaslik uchun nimalar qilish (yoki qilmaslik) kerakligini yana bir bor eslatib o'tamiz.

O'zingizni firibgarlardan himoya qilish uchun quyidagi tavsiyalarga qat'iy rioya qiling:

- ✓ O'z kartangiz pin-kodini begonalariga aytmang;
- ✓ Tekshirish uchun sms tasdiq kodini hech kimga ko'rsatmang;
- ✓ Shubhali shaxslarga pul o'tkazmang;
- ✓ Ijtimoiy tarmoqlarga 16 xonali raqamlari ko'rinib turgan kartangiz suratini joylashtirmang.

Firibgarlar turli narsalarni bahona qilib, o'zlarini bank yoki Uzcard xodimlari bo'lib tanishtirishlari mumkin. Ularning maqsadi – kartangizdan pullarni yechib olish.

Uzcard yoki banklar karta raqamini, pin-kodni yoki sms bo'yicha tasdiqlashni bilish uchun hech qachon mijozlarga qo'ng'iroq qilmaydi.

Agarda sizga bunday qo'ng'iroq kelib tushgan bo'lsa, e'tibor bermang.

Xullas, o'sha gap:

"Odamlar aldashdan voz kechmadi, siz ishonishdan voz keching!"

Marusa HOSILOVA,
"Inson va qonun" muxbiri

6 KO'ZGU

INSON huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 17-moddasida "Har bir inson yakka holda, shuningdek boshqalar bilan birgalikda mulkka egalik qilish huquqiga ega. Hech kim zo'rvonlik bilan o'z mulkidan mahrum etilishi mumkin emas", deb belgilangan.

Uy-joyga bo'lgan mulk huquqi KONSTITUTSIYAVIY JIHATDAN MUSTAHKAMLANMOQDA

Mazkur deklaratsiya talablaridan kelib chiqqan holda mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillarda mulk huquqi hamda mulkiy munosabatlarga oid qoidalar Konstitutsiya bilan mustahkamlab, kafolatlab, qo'yildi. Jumladan, Konstitutsiyamizning 53-moddasida "Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi. Xususi mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin", deya qayd etilgan. Biroq, ushbu norma umumiy xususiyatga ega bo'lib, mulk daxlsizligini to'laqonli ta'minlay olganicha yo'q. Ya'ni aholimizning eng og'riqli muammosiga aylangan "snos" masalasi juda katta e'tirozlarga sabab bo'ldi. Shunday holatlar kuzatildiki, qanchadan-qancha insonlar o'zlarini yashab turgan uyidan hech qanday qonuniy asossiz, kompensatsiya to'lovlarisiz chiqarib yuborilib, uy-joylari buzib tashlandi.

Shu ma'noda aytganda, hamyurtlarimizning uy-joyga bo'lgan mulk huquqi kafolatlarini ta'minlash va shu orqali "snos" bilan bog'liq muammolarga barham berish maqsadida yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 47-moddasiga "Hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emas. Uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning hamda u ko'rgan zararining o'zni qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda qoplanishi ta'minlanadi", degan mazmundagi norma kiritildi. Natijada uy-joyga oid mulk huquqiga nisbatan sud kafolati va kompensatsiya olish kafolati belgilanmoqda.

Sud kafolatiga ko'ra, hech kim uy-joyga nisbatan mulk huquqidan sud qarorisiz mahrum etilishi mumkin emas. Ushbu kafolat mulkdorning uy-joyga nisbatan mulk huquqi uning xohish-irodasidan tashqari, ya'ni majburiy tartibda bekor qilinayotganda qo'llanilishi nazarda tutilgan. Bunda sud uy-joyga nisbatan mulk huquqini bekor bo'lishiga sabab bo'luvchi holatlarni amaldagi qonun hujjatlari asosida ob'ektiv tarzda ko'rib chiqadi va tegishli qaror qabul qiladi.

Ikkinchi kafolat uy-joy mulkdorining iqtisodiy manfaatlarini himoyasiga yo'naltirilgan bo'lib, mazkur norma qonunda belgilangan hollarda va tartibda uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorni shu uy-joy va yetkazilgan zarar uchun oldindan, teng qiymatda kompensatsiya olishini kafolatlaydi. Bu amaldagi qonunchilikka muvofiq, mulkdorga olib qo'yilgan mol-mulkka teng qiymatli mol-mulk berilishi va uning ko'rgan boshqa zararlari to'lanishi yoki mulk huquqi bekor qilinishi bilan yetkazilgan zarar to'la hajmda qoplanishini anglatadi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur normaning Konstitutsiyaga kiritilishi uy-joyga bo'lgan mulk huquqini oliy darajada kafolatlanishini anglatadi. Zero, dunyodagi barcha demokratik huquqiy davlatlarda mulk huquqi, ayniqsa shaxs yashab turgan uy-joyga nisbatan mulk huquqi muqaddas huquq hisoblanadi va mutlaq himoya qilinadi.

Murod ChORIYEV,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti kafedra boshlig'i, yuridik fanlar doktori,
professor



BUGUNGI kunda ko'p mamlakatlar inson faoliyatining turli sohalarini raqamlashtirib kelmoqda. Huquqshunoslik ham bundan mustasno emas. Shu munosabat bilan Legal tech va Law tech deb nomlangan texnologiyalardan huquqiy amaliyotda unumli foydalanib kelinmoqda.

O'zbekistonda LEGAL TECH yutuq va kamchiliklar

Prezidentimizning 2020-yil 10-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida mamlakatimizda davlat boshqaruvi sohasini rivojlantirish xususan, mamlakat miqyosida sifatli va talab yuqori bo'lgan elektron davlat xizmatlarini yanada kengaytirish, bosqichma-bosqich barcha davlat xizmatlarini raqamli shaklga o'tkazish nazarda tutilgan.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 25-iyundagi qarorining 1-ilovasiga muvofiq, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi huzuridagi "Elektron hukumat loyihalarini boshqarish markazi" davlat muassasasida "Davlat boshqaruvi va adliya organlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'limi" faoliyat yuritmoqda.

Prezidentning 2021-yil 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi huzuridagi Raqamli texnologiyalar va

sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etilgan. Mazkur qarorning 2021-2022-yillarda sun'iy intellekt texnologiyalarini o'rganish va joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar dasturining 14-bandida Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish, Innovatsion rivojlanish vazirliklari, Fanlar akademiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan davlat tilida sun'iy intellekt bo'yicha izohli lug'at ishlab chiqish, 15-bandida esa sun'iy intellekt sohasida amaliy algoritmlar yozishda tadqiqotchilarni rag'batlantirish maqsadida doimiy ravishda "xakaton"lar va tanlovlar o'tkazish nazarda tutilgan. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ushbu qarorda sun'iy intellekt sohasida milliy va xorijiy oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining hamkorlikdagi tadqiqot loyihalari faolligini oshirish, sun'iy intellektni rivojlantirishga qaratilgan xalqaro hamkorlikdagi ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va sun'iy intellekt sohasida ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borayotgan yosh olimlarni qisqa muddatli xorijiy ilmiy stajirovkalarga yuborish ham belgilangan. Shuningdek, sun'iy intellekt sohasidagi startap loyihalarni qo'shma moliyalashtirish (crowd funding) mexanizmlarini joriy etish ham yuqoridagi normativ-huquqiy hujjatda nazarda tutilgan. Shuni ta'kidlab o'tish joiz-

ki, hozirgi paytda Legal tech sohasida bir qator ilmiy faoliyatlar amalga oshirilmoqda, ularga TDYU Legal tech laboratoriyasi, S. Gulyamovning "cyberlaw.uz" kiber huquq ilmiy maktabi, Doktor Ammar Yunasning "central-asiatechlaw.com" loyihasini misol keltirish mumkin. Bundan tashqari Adliya vazirligi huzuridagi Huquqiy siyosat tadqiqot instituti tomonidan 2021-yil 15-dekabr kuni o'tkazilgan "Adliya sohasida raqamlashtirishni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya ham aynan Legal tech sohasini tadqiq etishga qaratilgan.

Bundan tashqari bugungi kunda mamlakatimizda huquqiy texnologiyalarga oid bo'lgan bir qator ishlanmalar (Lex.uz, advice.uz, yurixizmat.uz) o'z faoliyatini olib bormoqda. Biroq, hozirgi paytda legal tech rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan bir qator kamchiliklar ham mavjud.

Jumladan, huquqshunoslikni raqamlashtirishga oid bo'lgan amaldagi normativ-huquqiy hujjatlardagi normalar, yo'l xaritalari, chora-tadbirlar hujjatda qolib ketmoqda. Ularni amalga oshirish ustidan tizimli nazorat yetarlicha emas. Tizimli nazoratni kim olib boriishi kerak, degan masala ochiq qolmoqda.



Mazkur sohani rivojlantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar, ilmiy tadqiqot natijalari, loyihalarining tutashuv nuqtalari (platformalar, doiralar, ishchi guruhlar) deyarli mavjud emas. Har bir davlat tashkiloti, ilmiy tadqiqot markazlari avtonom izlanishlar olib bormoqda. Xususan, mamlakatimizda bugungi kunda juda katta e'tibor qaratilayotgan IT Park, "Bir million dasturchi" loyihalarida ham Legal tech yo'nalishlari bilan bog'liqlik masalasi yechilmagan.

Maksudboy SADIKOV,
Toshkent davlat yuridik
universiteti katta o'qituvchisi

HAR qanday bitim va kelishuvlar Konstitutsiya hamda Fuqarolik kodeksi talablariga asosan tuziladi. Bitimlarga o'zgartirish va qo'shimcha kiritish esa taraflarning kelishuvi bilan tartibga solinadi.

Bitimga o'zgartirish (qo'shimcha) kiritish va bekor qilish fuqarolik kodeksi bilan tartibga solinadi



Xususan, Fuqarolik kodeksining 382-385-moddalarida shartnomani o'zgartirish va bekor qilish asoslari keltirilgan. Ya'ni agar ushbu kodeksda, qonunlarda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lsa, shartnoma taraflarning kelishuviga muvofiq o'zgartirilishi va bekor qilinishi mumkin.

Bordi-yu, ikkinchi taraf shartnomani jiddiy ravishda buzsa yoki qonunchilikda va shartnomada nazarda

tutilgan o'zga hollarda taraflardan birining talabi bilan shartnoma sud tomonidan o'zgartiriladi yoxud bekor qilinadi. Bir taraf shartnomani bajarishdan to'la yoki qisman bosh tortib, qonun yoxud taraflarning kelishuviga bunga yo'l qo'yilsa, shartnoma tegishli bekor qilingan yoki o'zgartirilgan hisoblanadi.

Kodeksning 383-moddasiga binoan, shartnoma tuzishda taraflar uchun asos bo'lgan vaziyatning jid-

diy o'zgarishi, agar boshqacha tartib shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa yoki uning mohiyatidan anglashilmasa, shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish uchun asos bo'ladi. Masalan, "A" ma'suliyati cheklangan jamiyati va "B" xususiy korxonasi o'rtasida 2022-yil 1-yanvar kuni tuzilgan mavsumiy mahsulot yetkazib berish to'g'risidagi shartnomaga asosan "A" MChJ mahsulotni 2022-yilning 1-fevral kuniga qadar yetkazib berishi, lozim bo'lgan. Biroq yetkazib berish muddati 2 oyga kechikkan. Natijada, "B" xususiy korxonasining mahsulotni uchinchi shaxslarga sotish imkonini cheklandi va mavsumiy xususiyatga ega bo'lgan mahsulotni sotishdan olinadigan daromadini yo'qotdi. Aynan shunday holatda, xususiy korxona sudga murojaat qilib, shartnomani bekor qilishni so'rashi mumkin.

Qoida tariqasida, shartnoma qanday shaklda tuzilgan bo'lsa, uni o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi kelishuv ham shunday shaklda tuziladi. Basharti qonunchilikdan, shartnoma yoki ish muomalasi odatlaridan boshqacha tartib kelib chiqmasa. Bunda, bir taraf shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi taklifga ikkinchi

taraftan rad javobi olganidan keyingina yoki taklifda ko'rsatilgan yoxud qonunda yoki shartnomada belgilangan muddatda, bunday muddat bo'lmaganida esa – o'ttiz kunlik muddatda javob olmaganidan keyin, shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi talabni sudga taqdim etishi mumkin.

Shuningdek, agar qonunda yoki taraflarning kelishuvida boshqacha tartib belgilangan bo'lsa, taraflar shartnoma o'zgartirilguncha yoki bekor qilinguncha majburiyat bo'yicha o'zlari bajargan narsalarni qaytarib berishni talab qilishga haqli emaslar. Agar shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish taraflardan birining shartnomani jiddiy buzishiga asoslangan bo'lsa, ikkinchi taraf shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish tufayli yetkazilgan zararni to'lashni talab qilishga haqli. Bunday hollarda, zarar ko'rgan taraf zararni qoplash maqsadida sudga taalluqlilik va sudlovga tegishlilik prinsipi asosida o'z tashabbuslari bilan sudga murojaat qilishlari zarur hisoblanadi.

Amir KDIRBAYEV
Qoraqalpog'iston Respublikasi
Adliya vazirligi mas'ul xodimi

JINOYAT VA JAZO

QO'QONDA istiqomat qiluvchi Gullola O'ktamova (ism-shariflari o'zgartirilgan) 2022-yilning may oyida haydovchilik guvohnomasini olish jarayonida fuqaro Akmal To'raboyev bilan tanishib qoladi. O'shanda u Akmalning yordamiga ehtiyoj sezgani bois telefon raqamini beradi. Ammo...

TOPTALGAN G'URUR MUDHISH JINOYATGA SABAB BO'LDI



Ammo shundan so'ng yigit o'zining "Spark" avtomashinasida Gullola ishlaydigan go'zallik saloni yaqiniga kelib, uni kuzata boshlaydi. Qolaversa, ayolning telefon raqamiga turli "sms" xabarlar yozib, uni yoq-tirib qolganini ma'lum qiladi. Shu bilan birga, do'stona gaplashib turish taklifini bildiradi. Albatta, bunga javoban ayol oilali ekanligi – xo'jayini va 2 nafar farzandi borligini aytadi. Biroq A. To'raboyev baribir uni kuzatishda davom etadi. Eng asosiysi, Gullolani o'zi mashinada olib yurishini ta'kidlab, hatto taksiga ham chiqarmay qo'yadi. Bordi-yu, ayol yashirin ravishda taksi chaqirsa, haydovchini qaytarib yuborib, bo-

rar manziliga o'zi eltib qo'yishini aytadi. Vaqt o'tgani sayin esa Akmal Gullolaning yurish-turishiga ham ochiq-oydin xo'jayinchilik qila boshlaydi. Oxir-oqibat Gullola bu haqda turmush o'rtog'i U. Asadovga aytishga majbur bo'ladi.

– Agar yana bezovta qilsa, darrov menga ayt. O'zim erakchasiga gaplashib olaman, – deydi Ulug'bek rashk va g'azabdan mushti tugilib.

Buni qarangi, 2022-yil 15-avgust kuni yarim kechasi A. To'raboyev dabdurdustdan ayolning uyiga bostirib keladi. Kela solib, U. Asadovning bo'yniga pichoq tirab, ko'chaga yetaklaydi. Keyin kimsasiz dala maydoniga olib borib, unga o'ldirish bilan tahdid qiladi. Qolaversa, Ulug'bekning g'ashiga tegadigan, kurakda turmas gaplarni aytib, g'ururini toptaydi.

– Yana sening yoningga kelsa, menga xabar ber! – deydi u 2022-yil 17-avgust kuni ertalab uyidan chiqayotib xotiniga.

Shundan so'ng Ulug'bek xo'jalik mollari do'konidan pichoq, 5-6 metr arqon va skotch sotib oladi. Keyin rafiqasi ishlaydigan go'zallik salonidan sal nariroqqa kelib, A. To'raboyevni kutib turadi. Taxminan 2 soatlardan keyin go'zallik saloni yoniga "Spark" mashinasi kelib to'xtaydi. Undan tushgan Akmal ichkariga kirib ketadi. Ichkarida u Gullolaga nimalar degani noma'lum. Lekin ko'p o'tmay qaytib chiqadi. Bungacha Ulug'bek mashinasidan tushib, unga yaqinlashib boradi. Mashinaga o'tirayotganida A. To'raboyevning badaniga takror-takror pichoq san'chadi. Go'zallik saloni yonida turgan taksi haydovchisi Sh. Samijonov esa holatni ko'rib, shoshib qoladi. Shu bois u darhol Akmalni "Spark"ka yotqizib, shifoxonaga haydaydi. Ammo jabrlanuvchining yo'lda joni uziladi.

Albatta, U. Asadov o'sha kunioyq IIB tezkor xodimlari tomonidan qo'lga olinadi. Keyin unga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atiladi. Mazkur qotillikni ko'rib chiqqan jinoyat ishlari bo'yicha Qo'qon shahar sudi U. Asadovni Jinoyat kodeksining tegishli moddasi bilan aybdor deb topib, ozodlikdan mahrum qilish jazosiga mahkum etdi.

Qobiljon ABDULLAYEV,
jinoyat ishlari bo'yicha Qo'qon shahar sudi sudyasi

E'LONLAR

"METALS FOR LESS" mas'uliyati cheklangan jamiyati ustav fondi 10 000 000 000 (o'n milliard) so'mga kamaytirilib, 37 349 989 375,00 (o'ttiz yetti milliard uch yuz qirq to'qqiz million to'qqiz yuz sakson to'qqiz ming uch yuz yetmish besh) so'm etib belgilanganligi ma'lum qilinadi.

Buxoro viloyat adliya boshqarmasining 2023-yil 24-martdagi buyrug'i bilan Buxoro shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Sherov Erkin Baxodirovich (litsenziya BH 0012, 22.04.2020 y) ga berilgan xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasining amal qilishi arizasiga muvofiq tugatildi.

"Advokatura to'g'risida"gi qonun hamda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-sentabrdagi qarori bilan tasdiqlangan "Advokatlik guvohnomasini berish tartibi to'g'risida"gi nizomga asosan Toshkent shahar adliya boshqarmasining 2023-yil 15-martdagi 84-um-son buyrug'iga binoan Tangibayev Xusanjon Furkatovichga 2022-yil 25-iyulda berilgan TN 002258 raqamli, Shakasi-mov Shaamir Shaazizovichga 2019-yil 17-yanvarda berilgan TN 000691 raqamli, Kim Viloriya 2019-yil 21-yanvarda berilgan TN 000873 raqamli, Mirzakari-mov Dilmurad Axmadullayevichga 2019-yil 28-yanvarda berilgan TN 001307 raqamli, Sizor Aleksandr Vasile-vichga 2019-yil 5-fevralda berilgan TN 001379 raqamli, Suleymanov Otabek Arabbayevichga 2020-yil 12-fevralda berilgan TN 001693 raqamli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi tugatildi.

"Advokatura to'g'risida"gi qonun hamda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-sentabrdagi qarori bilan tasdiqlangan "Advokatlik guvohnomasini berish tartibi to'g'risida"gi nizomga asosan Toshkent shahar adliya boshqarmasining 2023 yil 15 martdagi 84-um-son buyrug'iga asosan Mirmaxmudov Baxtiyor Mirsodiq-vichga 2019-yil 18-yanvarda berilgan TN 000812 raqa-mli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi 2022-yil 4-martdan 1 (bir) oy muddatga, Kim David Dmitriyevichga 2022-yil 12-yanvarda berilgan TN 002117 raqamli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruv-chi litsenziyaning amal qilishi va advokatlik maqomi 2023-yil 27-fevraldan 3 (uch) oy muddatga to'xtatildi.

"Advokatura to'g'risida"gi qonun hamda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-sentabrdagi qarori bilan tasdiqlangan "Advokatlik guvohnomasini berish tartibi to'g'risida"gi nizomga asosan Toshkent shahar adliya boshqarmasining 2023-yil 15-martdagi 84-um-son buyrug'iga muvofiq Abdullaev Aydarbek Sabirbayevich-ni advokatlik maqomi tiklandi.

8 ADABIY AYVON

SO'RAGAN EDINGIZ

O'zbekiston fuqarosi
CHET ELDA VAFOT ETSA...

– CHET elda vafot etgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining o'limini qayd etish tartibi qanday?

– FHDYo organlari tug'ilganlik, nikoh tuzilganligi va nikohdan ajralganlik haqidagi dalolatnoma yozuvlarini qayd etish bilan birga yana bir harakat o'lim haqidagi dalolatnoma yozuvlarini ham qayd etadi.

O'lim haqidagi dalolatnoma yozuvlarini qayd etish marhumning doimiy (vaqtincha) ro'yxatdan o'tgan joyidan qat'i nazar FHDYo organi tomonidan amalga oshirilib, o'limni qayd etish to'g'risidagi ariza o'lim to'g'risidagi tibbiy ma'lumotnoma berilgandan keyin 3 kundan kechikmay berilishi kerak (o'limni kompozit davlat xizmati sifatida qayd etish bundan mustasno).

Davlat hollarda o'limni qayd ettirish to'g'risida marhumning qarindoshlari va yaqin kishilari, shuningdek tibbiy muassasa ma'muriyati murojaat etishi mumkin, ular o'lim to'g'risida tibbiy ma'lumotnoma taqdim etadi.

Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 14-noyabrda qarori bilan tasdiqlangan "Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalariga" asosan: Chet elda vafot etgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining o'limini qayd etish marhum yashab turgan yoki o'lim sodir bo'lgan joydagi O'zbekiston Respublikasining konsullik muassasasi tomonidan amalga oshiriladi.

Agar o'limni qayd etish marhumning yashash joyidan boshqa okrugda amalga oshirilsa, u holda o'limni qayd etgan konsullik muassasasi marhum hisobda turgan konsullik muassasasiga uning familiyasi, ismi, otasining ismi, o'lgan sanasi, shuningdek o'lim haqidagi dalolatnoma yozuvining raqami va o'lim qayd etilgan joy va sana ko'rsatilgan xabarnoma yuboradi.

Agar o'limni qayd etishda marhumning homiy-siz qolgan voyaga yetmagan bolalari borligi ma'lum bo'lsa, u holda konsul shu kunning o'zidayoq bu haqda O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga xabar beradi, deb ko'rsatib o'tilgan.

Shuningdek, "Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida ish yuritish tartibi to'g'risidagi Yo'riqnomaga" ga asosan chet elda vafot etgan shaxsning ma'lumotlari legalizatsiya qilingan yoki apostil qo'yilgan vafot etganligini tasdiqlovchi hujjatlari asosida (guvohnoma, sertifikat va boshqa hujjatlar) elektron axborot tizimiga kiritiladi va zarur bo'lgan hollarda FHDYo organi tomonidan mazkur Yo'riqnomaning 44-ilovasiga muvofiq shaklda dafn etish joyiga topshirish uchun ma'lumotnoma beriladi.

**Savolga G'ijduvon tuman FHDYo bo'limi mudiri
Laziz BOTIROV javob berdi**

Davomi. Boshlanishi o'tgan sonda.

– Nima desam ekan, – dedi u Saylioga bir parcha qog'ozni uzatib. – Ko'rib turibsizki, menda kassa cheki bor.

Qorovulboshi chekka ko'z tashlab uni boshqaruvchiga uzatdi. U esa menga g'azabnok qarab qo'yar ekan, chekni xaridorga qaytardi.

– Xohlasangiz chek daftarchamniyam ko'rsatishim mumkin, – dedi naynov.

– Shart emas, janob, hammasi joyida, – dedi xushomad ohangida qorovulboshi.

Yashil plashli naynov boshqaruvchining uzrini eshitishniyam istamadi:

– Hechqisi yo'q, siz o'z vazifangizni bajaringiz. O'ringizda bo'lsam, menam shunday qilgan bo'lardim. Ehtiyotkorlik hecham ziyon qilmaydi.

– Hammasi mening aybim bilan bo'ldi, – dedim men. – O'ng'aysiz vaziyat uchun kechirasiz.

Gapimga javob berishni hech kim ep ko'rma-di. Ko'chaga chiqar ekanman, endi bu do'kondan hech qachon, hech narsa xarid qilmaslikka o'zimga o'zim so'z berdim.

Adashgan bo'lishim mumkin emas. Ana-vi naynov zajigalkani cho'ntakka urganini o'z ko'zim bilan ko'rdim. Hech qanaqangi sotuvchini ham qidirgani yo'q. U o'g'rilarga xos qandaydir usul qo'llagani, ayyorlik ishlatgani aniq. Hammani aldashni qanday eplaganiga aqlim yetmasdi.

Mashinam oldiga qaytib, endi rulga o'tirganimda kimdir eshik oynasini chertdi. Yashil yomg'irpo'shli darozning tirjaygan basharasi ko'rindi. Oynani tushirdim. U menga yaltirab turgan ritsarni uzatdi.

– Og'ayni, antiqa zajigalka kerakmi? – dedi u hiringlab, – narxini kelishamiz.

Javob berishdan oldin yutib oldim.

– Uni o'g'irlab oldingiz, bilaman. Lekin chek qayoqdan paydo bo'ldi?

– Aytсам sotib olasizmi?

– Bir chaqagayam olmayman!

– Bo'pti, bo'pti, janob yaxshi odam, – kuldi o'g'ri. – Nima bo'lganini aytaman. Bugun ertalab xuddi shunaqa zajigalkadan bittasini sotib olgan edim. Tushdan keyin qaytib, ikkinchisini tekinga oldim. Ishni buzib qo'yishingizga sal qoldi. Ertalabki chek menga asqotdi. Kechki ovqatdan so'ng kelib yana bittasini olib ketmoqchiydim, afsuski, endi bu rejam ish bermaydi. Shunday ekan, og'ayni, buni mendan sotib olishingizga to'g'ri keladi. To'g'ri tushuning, sizning oljanobliligingizni deb zarar ko'rolmayman, axir.

– Janob Saylioniing oldiga qaytib, ularni qanday chuv tushurganingizni aytishimga to'g'ri keladi, shekilli.

– Jiddiy aytayapsizmi shu gapni? Bo'pti, yuring, birga borishim mumkin.

– Jo'nang bu yerdan! – baqirib yubordim.

O'g'ri tirjaygan ko'yi nari ketdi.

Sigaret tutatdim. Alamdand qo'llarim titrayotgan edi. Agar bu yaramas bunaqa gavdali bo'lmagandami, yetib olib qolgan tishlariniyam qoqib olardim. Livaynning oldiga borib qayta hisoblashni talab qilishim kerak. Shunda zajigalka o'g'irlangani ma'lum bo'ladi. Ammo esimga boshqaruvchining sovuq muomalasi, xo'mraygan basharasi tushdi. Battar bo'lishsin!

Uilford CHARLZ



Guvoh

Qayoqdandir politsiya patruli paydo bo'ldi.

– Mashina siznikimi, janob?

– Ha, meniki. Tinchlikmi?

– Marhamat qilib tushsangiz, gap bor.

Hayron bo'lib mashinamdan tushdim.

– Qarang, – dedi politsiyachi. – Siz to'xtash qoidasini buzgansiz. Bu yerdagi qizil chiziqli ko'rayapsizmi?

– Nima bo'pti shunga! – dedim achchiqlanib. – Qizil chiziqli faqat old bamper o'tgan, g'ildiraklar chiziqliqan berida. Hech kimga xalaqit berayotgani yo'q. Shunga shunchami...

– Men bilan tortishmang, janob, – dedi politsiyachi o'zini charchab ketgan odamday tutib. So'ng cho'ntagidan kvitansiya yozadigan daftarchasini chiqardi. – Odatda og'zaki ogohlantirish bilan cheklanardim. Lekin bema'ni tortishuvingiz uchun jarima yozishga majburman. Xudoga shukr, hali hushyor, mas'uliyatli fuqarolar ham bor. Boyagi yashil plashdagi janob mashinangiz noto'g'ri turganini aytmaganda, menam e'tibor bermagan bo'lardim. U sizga yaxshilik istab, qizilda turganingizni aytibdi, siz bo'lsa rahmat deyish o'rniga so'kib haydabsiz. Shunaqayam bo'ladingi, odam degan! Qonun-qoidalar amal qilish uchun chiqarilgan, men sizga aytсам. Hay, mayli, ism-familiyangizni aytinch, janob?

Rus tilidan Shavkat YODGOROV tarjimai

INSON
va qonun

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI

"Adolat" milliy huquqiy axborot
markazi nashri

info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda
O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0081-raqam bilan
ro'yxatga olingan



Bosh
muharrir

Asliddin
ALIMARDON

TAHRIR HAY'ATI

Alisher Karimov
Furqat Tojiyev
Hayotjon Kliचेव
Sevara O'rinoёyeva
Yorбек Iskandarov
Dilfuza Ergasheva

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqriz
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

Navbatchi
Xurshid Sultonov
Sahifalovchi-dizayner
Jasur Tojiyoyev

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter bazasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uy

Tiraji – 3835
Buyurtma – 983

Topshirish vaqti – 19:00
Topshirildi – 20:00

MANZILIMIZ:

100115, Toshkent sh.
Amir Temur shohko'chasi
19-uy.

Faks: (71) 233-28-18
Obuna bo'limi:
(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5